



<https://doi.org/10.5281/zenodo.21024255>

“TURISTIK QISHLOQ” LOYIHALARINING QISHLOQ AHOLISI BANDLIGIGA TA’SIRI

Sh.Uralov – SamISI assistant-stajyori

Annotatsiya Maqolada O‘zbekistonda “Turistik qishloq” loyihalarini amalga oshirishning qishloq aholisi bandligiga ta’siri tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda mamlakatda qishloq turizmini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Sentob”, “Omonxona”, “Chodak”, “Konigil” kabi qishloqlarga turizm qishlog‘i maqomi berilishi mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Maqolada O‘zbekistonning turli hududlaridagi turistik qishloqlar tajribasi o‘rganilib, loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: turistik qishloq, qishloq turizmi, bandlik, oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik, aholi daromadlari, hududiy rivojlanish.

“Turistik qishloq” – bu qishloq hududlarining o‘ziga xos tabiiy manzaralari, tarixiy-madaniy merosi, milliy urf-odatlar va an‘analarini saqlab qolgan holda turizm xizmatlarini rivojlantirish uchun maxsus maqom berilgan hududdir. BMT Turizm tashkilotining “Eng yaxshi turizm qishloqlari” loyihasi global miqyosda kichik qishloqlarning o‘zgacha madaniyati, urf-odati va tabiat go‘zalliklarini saqlab qolish, shu bilan birga iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda turistik qishloq maqomini berish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-avgustdagi qarori bilan belgilangan. Unga ko‘ra, “turizm qishlog‘i” maqomiga ega bo‘lish uchun fuqarolar yig‘ini hududida kamida yigirmata oilaviy mehmon uyi mavjud bo‘lishi, sayyohlarga turar joy va ovqatlanish xizmatlaridan tashqari yana kamida besh turdagi sifatli turistik xizmat ko‘rsatilishi shart. Shuningdek, mahalliy

ishlab chiqariladigan esdalik sovgʻalar sotiladigan savdo shoxobchasi boʻlishi ham talab etiladi

Turistik qishloq loyihalari aholi bandligiga quyidagi yoʻnalishlar orqali ijobiy taʼsir koʻrsatadi:

Bu turistik qishloq maqomini olishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Namangan viloyatining Chodak qishlogʻida 300 ta oilaviy mehmon uyi faoliyat koʻrsatmoqda. Mehmon uylari sayyohlarni qabul qiluvchi oilalarning turmush farovonligiga hissa qoʻshadi va ular uchun barqaror daromad manbai boʻlib xizmat qiladi.

Samarqand tumanidagi Konigil qishlogʻida kulollik, Samarqand qogʻozi ishlab chiqarish, yogʻjuvozlik va duradgorlik kabi anʼanaviy hunarmandchilik turlari rivojlangan. Turistik qishloq maqomi ushbu hunarmandchilikka boʻlgan talabni oshirgan va koʻplab yangi ish oʻrinlari yaratilgan.

Chodak qishlogʻida 30 ta gastronomik turizm obyekti mavjud boʻlib, ular milliy taomlar tayyorlash va sayyohlarga xizmat koʻrsatish orqali aholi bandligini taʼminlaydi.

Turistik qishloqlarda yoʻriqchi (gid) xizmatlari, transport xizmatlari, madaniy tadbirlar va folklor namoyishlari kabi koʻplab xizmat turlari rivojlanmoqda. Bu sohalar ayniqsa yoshlar va ayollar bandligini taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Pap tumanidagi Chodak qishlogʻiga 2024-yilda “Turistik qishloq” maqomi berilgan. Qishloqda 300 ta oilaviy mehmon uyi, 4 ta sogʻlomlashtirish kompleksi, 3 ta bolalar oromgohi, 2 ta hostel, 1 ta kemping, 30 ta gastronomik turizm obyekti faoliyat koʻrsatmoqda. Natijada 1500 dan ortiq mahalliy aholi ish bilan taʼminlangan. Qishloqda 400 metr uzunlikdagi havo yoʻli, osma koʻpriklar va ekstremal yoʻnalishlar kabi qoʻshimcha turistik xizmatlar ham yaratilgan.

Samarqand tumanidagi Konigil qishlogʻi mamlakatda birinchilardan boʻlib turizm qishlogʻi maqomini olgan. Choʻponota tepaligi etagida joylashgan qishloq Samarqand qogʻozi, yogʻjuvoz, kulollik, duradgorlik va boshqa hunarmandlik anʼanalari davom etayotgan hudud sanaladi. Qishloqda koʻplab hunarmandlik va xizmat koʻrsatish maskanlari ishlab turibdi, Siyob arigʻi boʻyida piyodalar yoʻlagi, dam olish maskanlari,

mehmon uylari va ovqatlanish shoxobchalari ochilgan. Mahalliy kulollar, qog'oz tayyorlovchilar va boshqa hunarmandlar uchun barqaror daromad manbai yaratilgan.

2025-yilda BMT Turizm tashkilotining "Eng yaxshi turizm qishlog'i" loyihasi g'oliblari safidan joy olgan Omonxona qishlog'ida turizm infratuzilmasi bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Qishloq hududida turistik markaz barpo etilayotir, "Omonxona" sanatoriyasi kengaytirilib, 200 o'rinli yotoqxona va 300 o'ringa mo'ljallangan oshxona qurilishi boshlanmoqda. Ushbu loyihalar yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

2025-yilda Kitob tumanidagi "Kainar" va "Bashir" qishloqlari "Turistik qishloq" maqomiga sazovor bo'ldi. Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu maqom qishloqlarda aholi bandligini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

2025-yil avgust oyida Jondor tumanidagi Ushot qishlog'i "Turistik qishloq" deb e'lon qilindi. Loyiha yoshlar va ayollar bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. Mahalliy ayollar mehmon uylarini boshqarish, madaniy tadbirlar tashkil etish va sayyohlarga xizmat ko'rsatish sohasida yetakchi rollarni o'z zimmalariga olmoqda, bu jamoatchilikda gender tengligi va ijtimoiy inklyuziyaga hissa qo'shmoqda

O'zbekiston hukumati qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda. 2023-yilda "Sentob" qishlog'ining BMT Turizm tashkiloti tomonidan eng yaxshi turizm qishlog'i sifatida tan olinishi ushbu yo'nalishdagi ishlarning samaradorligini ko'rsatdi. Keyinchalik "Omonxona" qishlog'ining ham xalqaro e'tirofga sazovor bo'lishi O'zbekistonning qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish va yangi turizm markazlarini shakllantirish yo'lida olib borilayotgan izchil siyosatning amaldagi samarasidir.

Qoraqalpog'istonda etno va ekoturizm salohiyatini to'liq ishga solish orqali 3 million turistni jalb etish, bir necha kun davomida xizmat ko'rsatish va mahalliy aholi bandligini oshirish rejalashtirilgan. Mo'ynoqda kamida 1 milliard dollarlik turizm loyihalari uchun salohiyat mavjud bo'lib, yaxlit majmualarni ishga tushirib, 1 million sayyohga xizmat ko'rsatish va 5 ming aholini daromadli qilish mumkin.

“Turistik qishloq” loyihalari O‘zbekiston qishloq aholisi bandligini ta’minlash va ularning turmush darajasini yaxshilashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chodak, Konigil, Omonxona, Ushot, Kainar va Bashir kabi qishloqlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turistik qishloq maqomi oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik ustaxonalari, gastronomik turizm ob’ektlari va xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishi orqali yuzlab va minglab yangi ish o‘rinlari yaratishga olib kelmoqda.

Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini ta’minlash, mahalliy an’ana va hunarmandchilikni saqlab qolish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish sohasida turistik qishloq loyihalari muhim natijalarni ko‘rsatmoqda. Xalqaro miqyosda e’tirof etilgan muvaffaqiyatlar O‘zbekistonning qishloq turizmini rivojlantirish siyosatining to‘g‘ri yo‘naltirilganligini tasdiqlaydi.

Kelgusida qishloq turizmini yanada rivojlantirish, mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanish va yangi turistik qishloqlarni tashkil etish orqali aholi bandligini oshirish va qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish mumkin. Bu nafaqat qishloq aholisi daromadlarini ko‘paytiradi, balki mamlakat turizm xizmatlari eksportini oshirish va hududiy rivojlanishda muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turizm qo‘mitasi BMT Turizm tashkilotining maxsus mukofotini qo‘lga kiritdi. (2025). O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. <https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/88537>
2. Omonxona sayyoramizning eng yaxshi turizm qishloqlaridan biri sifatida tan olindi. (2025). O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. https://uza.uz/oz/posts/omonxona-sayyoramizning-eng-yaxshi-turizm-qishloqlaridan-biri-sifatida-tan-olindi_784600
3. The village of Chodak has been awarded the status of “Tourist Village”. (2024). Uzbekistan Travel. <https://uzbekistan.travel/en/o/village-chodak-has-been-awarded-status-tourist-village/>

4. Qishloq emas, ertaknamo maskan. (2021). Yangi O‘zbekiston. <https://yuz.uz/uz/news/qishloq-emas-ertaknamo-maskan>
5. The villages of “Kainar” and “Bashir” of the Kashkadarya region have officially been awarded the status of “Tourist Village”. (2025). O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. <https://gov.uz/en/uzbektourism/news/view/57843>
6. Kambag‘allikni qisqartirishda qishloq turizmidan foydalanish imkoniyatlari. (2026). Zenodo. <https://zenodo.org/records/20701047>
7. Modeling and Analysis of Strategic Entrepreneurship Factors With a Cultural Approach in the Rural Tourism Industry. (2025). International Journal of Tourism, Culture & Spirituality.
8. Discover Ushot: Bukhara’s New Tourist Village Celebrates Uzbekistan’s Rich Cultural Heritage. (2025). Travel And Tour World. <https://www.travelandtourworld.cz/>
9. Qoraqalpog‘istonda qishloq xo‘jaligi, sanoat va turizmni rivojlantirish bo‘yicha loyiha ofisi tashkil etiladi. (2024). Kun.uz. <https://m.kun.uz/news/2024/12/23/qoraqalpogistonda-qishloq-xojaligi-sanoat-va-turizmni-rivojlantirish-boyicha-loyiha-ofisi-tashkil-etiladi>
10. Turizm qishlog‘i statusiga ega bo‘lgan mahallalar uchun imtiyozlar mavjud – Lola Zakirlyeva. (2020). Yuz.uz. <https://yuz.uz/uz/news/qishloq-emas-ertaknamo-maskan>